ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	803
Ишонкулова Феруза Асатовна	
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	808
Sadinov Aziz Ziyadullayevich	
BOJXONA BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI	814
Radjapova Latofat Sardorovna	
MILLIY IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI	821
Abdullayeva Madina Kamilovna	
UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI	827
Nigmatov Akbarjon Anvarovich	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH	831
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVIROPA TAJRIBASI	837
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	842
Nozimov Eldor Anvarovich	
MAHALLIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA IMPORT O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISH STRATEGIYASI	847
Sobitova Ra'no Solidjonovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI.....	850
Raxmonov Aziz Iskandarovich	
COST ANALYSIS IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING PLANTS.....	855
Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	861
Butayev Dilshod Eshbekovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....	867
Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI.....	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....	877
Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	882
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH.....	888
Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	894
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	
АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	901
Абилов Эльман Худаверди оглы	
QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL.....	906
Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich	
TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI XUSUSIDA.....	914
Hakimov Odil Arziqulovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN INVESTITSİYALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI.....	918
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	930
Uzakova Umida Ruziyevna	
INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIY MEKANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIY MAZMUNI.....	936
Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHİYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI.....	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQARISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



MAMLAKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	956
Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna	
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	963
Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	968
Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi	
FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	973
Islamova Dilnoza Isamidinovna	
ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	978
Uzaqov Jamshid Norboyevich	
TIJORAT BANKLARINING EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	983
Shaymanov Mexriddin Ibragimovich	
ISLOM MOLIYASIDA MAJBURIYAT VA OMONAT MEXANIZMLARI: RAHN, VADIYA VA HAVALA.....	987
Sadikova Ra'no Abdullaevna	
FIRIBGARLIK BILAN BOG'LIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVI RISKLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI	991
Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ UZAUTO MOTORS.....	996
Шарипов К.А., Зайнутдинова У.Дж.	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA BANDLIK BILAN TA'MINLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA MUAMMOLAR TADQIQI.....	1005
Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich, Saparov Murod Irgashovich	
YO'LOVCHI TASHISH XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1010
Alisher Kurambayev	
SUG'URTA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TAKAFUL SUG'URTASINING O'RNI VA IMKONIYATLARI.....	1014
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI.....	1020
Valikulov Sherzod Zaynitdinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETPLEYSLARNI SHAKLLANTIRISH: INVESTITSIYALAR, XARAJATLAR VA FOYDA.....	1029
Axmedova Dilshoda Xayrulla qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	1033
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Muminova Shahlo Madaminjon qizi	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Maxmudov Tohirjon Olimjonovich

Namangan davlat texnika universiteti
Marketing kafedrası dotsenti, PhD

Muminova Shahlo Madaminjon qizi

Namangan davlat texnika universiteti
Marketing yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda marketing jarayonlarini sun'iy intellekt asosida rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda sun'iy intellekt texnologiyalarining marketing samaradorligini oshirishdagi o'ri, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtirish, auditoriyani segmentatsiya qilish, shaxsiylashtirilgan reklama yaratish hamda mijoz tajribasini boshqarishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada korxonalarda sun'iy intellekt platformalaridan foydalanish mexanizmlari, marketing kampaniyalarini avtomatik optimallashtirish, reklama samaradorligini real vaqt rejimida monitoring qilish hamda raqobat ustunligini ta'minlash imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, marketing samaradorligi, Big Data, marketingni avtomatlashtirish, mijoz tajribasi, segmentatsiya, personalizatsiya, reklama optimallashtirish, raqobat ustunligi, sun'iy intellekt platformalari, marketing transformatsiyasi.

Abstract. This article analyzes the mechanisms for developing marketing processes based on artificial intelligence in the context of Uzbekistan's digital economy. The study examines the role of artificial intelligence technologies in enhancing marketing effectiveness, improving data-driven decision-making processes, audience segmentation, personalized advertising, and customer experience management. The paper also substantiates the mechanisms for implementing artificial intelligence platforms in business activities, automatic optimization of marketing campaigns, real-time monitoring of advertising effectiveness, and achieving competitive advantages.

Key words: artificial intelligence, digital economy, marketing effectiveness, Big Data, marketing automation, customer experience, segmentation, personalization, advertising optimization, competitive advantage, AI platforms, marketing transformation.

Аннотация. В данной статье проанализированы механизмы развития маркетинговых процессов на основе искусственного интеллекта в условиях цифровой экономики Узбекистана. В исследовании раскрыта роль технологий искусственного интеллекта в повышении эффективности маркетинга, совершенствовании процессов принятия решений на основе данных, сегментации аудитории, создании персонализированной рекламы и управлении клиентским опытом. В статье также обоснованы механизмы использования платформ искусственного интеллекта в деятельности предприятий, автоматической оптимизации маркетинговых кампаний, мониторинга эффективности рекламы в режиме реального времени и обеспечения конкурентных преимуществ.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровая экономика, эффективность маркетинга, Big Data, автоматизация маркетинга, клиентский опыт, сегментация, персонализация, оптимизация рекламы, конкурентное преимущество, платформы ИИ, маркетинговая трансформация.



KIRISH

Raqamli iqtisodiyot sharoitida marketing jarayonlari tubdan o'zgarib, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv modeli ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Internet infratuzilmasining kengayishi, mobil texnologiyalarning ommalashuvi hamda katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data)ning shakllanishi marketing faoliyatini avtomatlashtirish va optimallashtirish imkonini bermoqda [2]. Ayniqsa, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining joriy etilishi marketingni rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar iste'molchilarning xatti-harakatlarini prognozlash, individual takliflar yaratish, reklama kampaniyalarini avtomatik boshqarish hamda mijozlar bilan muloqotni real vaqt rejimida amalga oshirish imkonini beradi [1, 5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yilda qabul qilingan PQ-358-sonli "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori joriy etildi. Ushbu qarorga muvofiq, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatning sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi yetakchi davlatlar qatoriga kirishiga erishish, shuningdek, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi [8].

Mazkur qaror sun'iy intellektni 2030-yilgacha rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini belgilab berdi. Hujjatda sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar ulushini oshirish, ilmiy laboratoriyalar tashkil etish hamda Government AI Readiness Index ko'rsatkichini yaxshilash kabi maqsadlar belgilangan bo'lib, bu marketing jarayonlarini raqamli transformatsiya qilish uchun muhim institutsional asos yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida marketing jarayonlarini sun'iy intellekt asosida transformatsiya qilish masalasi so'nggi yillarda ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Tadqiqotlar asosan marketingni raqamlashtirish, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv modeli hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri yo'nalishlarida olib borilgan.

Davenport va Ronanki [1] sun'iy intellektni biznes jarayonlariga joriy etishning amaliy mexanizmlarini tahlil qilib, AI texnologiyalarining uch asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatadi: jarayonlarni avtomatlashtirish, kognitiv tahlil va mijozlar bilan intellektual muloqot. Ularning fikricha, sun'iy intellektidan samarali foydalanish korxonada faoliyatida operatsion xarajatlarni kamaytirish va qaror qabul qilish sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv marketing jarayonlarini optimallashtirishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Chaffey va Ellis-Chadwick [2] raqamli marketing strategiyasini ishlab chiqishda integratsiyalashgan yondashuvni ilgari suradi. Ular marketingni data-driven boshqaruv modeli asosida qurish zarurligini ta'kidlab, Big Data va analitik tizimlarning reklama samaradorligiga bevosita ta'sirini asoslaydi. Ushbu nazariya marketing jarayonlarining avtomatlashtirilishi va shaxsiylashtirilgan kommunikatsiyaning rivojlanishiga metodologik zamin yaratadi.

Wedel va Kannan [3] marketing analytics konsepsiyasini ishlab chiqib, ma'lumotlarga boy muhitda iste'molchilar xatti-harakatini prognozlash modellari samaradorligini asoslaydi. Ularning tadqiqotlari algoritmik segmentatsiya, prediktiv modellashtirish va real vaqt rejimida reklama optimallashtirish nazariyasini shakllantirgan. Bu yondashuv sun'iy intellekt asosida marketing samaradorligini oshirish mexanizmlarini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kumar va boshqalar [4] marketingda intellektual agent texnologiyalari (IAT) qo'llanilishini o'rganib, aqlli tizimlar mijoz tajribasini boshqarish va shaxsiylashtirilgan xizmat ko'rsatishda muhim vosita ekanligini ta'kidlaydi. Ularning nazariyasiga ko'ra, AI asosidagi agentlar mijoz bilan interaktiv aloqani kuchaytiradi va uzoq muddatli sodiqlikni shakllantiradi.

Huang va Rust [5] esa sun'iy intellektni xizmat ko'rsatish sohasida qo'llash nazariyasini ishlab chiqib, AI inson mehnatini to'liq almashtirmasdan, balki uni kuchaytiruvchi (augmented intelligence) model sifatida samarali ekanligini asoslaydi. Ularning fikricha, AI marketingda inson va texnologiya integratsiyasi orqali yuqori natijadorlikka erishish imkonini beradi.

Shankar va boshqalar [6] global raqamli marketing kommunikatsiyalarini tahlil qilib, sun'iy intellekt algoritmilarining targetlash, kontent personalizatsiyasi va omnichannel strategiyalarni shakllantirishdagi rolini ko'rsatadi. Ular kelajak marketingi to'liq avtomatlashtirilgan va real vaqtli tahlilga asoslangan bo'lishini prognoz qiladilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Ilmiy-nazariy tahlil usuli asosida marketingni raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalari hamda data-driven marketing konsepsiyalariga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar o'rganildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining sun'iy intellektni



2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi va normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqotda tahliliy va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Natijada sun'iy intellekt asosida marketingni transformatsiya qilish mexanizmlarining nazariy asoslari shakllantirildi hamda O'zbekiston sharoitida ularni joriy etishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi (keyingi o'rinlarda – Strategiya) 1-jadvalga muvofiq ko'rib chiqiladi. O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish bo'yicha erishish lozim bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSH dollariga yetkazish;
- Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida sun'iy intellekt asosida ko'rsatilayotgan xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish;
- sun'iy intellekt yo'nalishida faoliyat yurituvchi ilmiy laboratoriyalar sonini 10 taga yetkazish;
- yuqori quvvatli hisoblash serverlarini ishga tushirish.

Ushbu vazifalar Strategiya doirasida amalga oshiriladigan asosiy yo'nalishlar sifatida belgilangan.

1-jadval. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Amaldagi holat	2026-yil	2028-yil	2030-yil
1.	Davlat organlarining ma'lumotlarni qayta ishlash markazlarida sun'iy intellekt uchun ajratilgan quvvatlar ulushi	foiz	-	5	7	10
2.	Sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi	mln dollar	10	200	500	1 500
3.	Ochiq ma'lumotlar portalidagi statistik va tarmoq ma'lumotlari	ma'lumotlar to'plami	5 777	7 500	8 500	10 000
4.	Sun'iy intellekt sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun ochiq shaklda taqdim etiladigan idoraviy ma'lumotlar	ma'lumotlar to'plami	16	50	100	200
5.	Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida sun'iy intellekt asosida ko'rsatilayotgan xizmatlar ulushi	foiz	-	1	5	10
6.	Soha va tarmoqlarda sun'iy intellekt asosida amalga oshiriladigan loyihalar	soni	-	57	100	185
7.	IT-parkda sun'iy intellekt yo'nalishida faoliyat yurituvchi rezidentlar	soni	10	20	35	50
8.	Sun'iy intellekt yo'nalishida malakali mutaxassislar tayyorlash	nafar	572	650	800	1 000
9.	Sun'iy intellekt yo'nalishida faoliyat yurituvchi ilmiy laboratoriyalar	soni	-	6	8	10
10.	IT yo'nalishidagi oliygohlarda sun'iy intellekt yo'nalishida ilmiy darajaga ega bo'lgan o'qituvchilar (PhD, DSc)	nafar	-	20	25	40
11.	Hukumatning sun'iy intellektga tayyorlik indeksida (Government AI Readiness Index) O'zbekistonning o'rni	o'rin	87	75	65	50

Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar yillar oralig'ida bosqichma-bosqich o'sish dinamikasini namoyon etadi. Davlat organlarining ma'lumotlarni qayta ishlash markazlarida sun'iy intellekt uchun ajratilgan quvvatlar ulushi 2026-yilda 5 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan bo'lsa, 2028-yilda 7 foizga va 2030-yilda 10 foizga yetkaziladi.

Sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va xizmatlar hajmi 2026-yilda 200 mln dollarga, 2028-yilda 500 mln dollarga va 2030-yilda 1,5 mlrd dollarga yetkazilishi belgilangan. Shu davrda 2026–2028 yillarda 2,5 baravar, 2028–2030 yillarda esa 3 baravar o'sish kuzatiladi.




Ochiq ma'lumotlar portalidagi ma'lumotlar to'plami 5 777 tadan 2026-yilda 7 500 taga, 2028-yilda 8 500 taga va 2030-yilda 10 000 taga yetkaziladi. 2026–2030 yillarda umumiy o'sish qariyb 73 foizni tashkil etadi. Ildoraviy ochiq ma'lumotlar soni esa 16 tadan 200 taga oshib, 12 baravardan ortiq o'sadi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida AI asosidagi xizmatlar ulushi 2026-yilda 1 foiz, 2028-yilda 5 foiz va 2030-yilda 10 foizga yetkaziladi. Bu 2026–2030 yillarda o'n baravar o'sishni anglatadi. Soha va tarmoqlarda AI asosida amalga oshiriladigan loyihalar soni 2026-yilda 57 ta, 2028-yilda 100 ta va 2030-yilda 185 taga yetadi. Shu davrda o'sish qariyb 3 baravarni tashkil etadi.

IT-park rezidentlari soni 10 tadan 50 taga oshib, 5 baravar o'sadi. Kadrlar salohiyati ham bosqichma-bosqich mustahkamlanadi: malakali mutaxassislar soni 572 nafardan 1 000 nafarga yetkazilib, qariyb 75 foiz o'sish kuzatiladi. Ilmiy laboratoriyalar soni 10 taga, AI yo'nalishida ilmiy darajaga ega o'qituvchilar soni esa 40 nafarga yetkazilishi rejalashtirilgan.

Bozorlarning globallashuvi va texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida marketing jarayonlari murakkablashdi va yuqori darajada shaxsiylashtirilgan yondashuvni talab qilmoqda. An'anaviy marketing vositalari ko'plab ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash imkoniyatiga ega emas. Shu bois, sun'iy intellekt asosidagi tizimlar marketing jarayonlarining ajralmas qismiga aylanmoqda. Sun'iy intellekt marketingda quyidagi asosiy yo'nalishlarda qo'llaniladi [3].



1-rasm Sun'iy intellektning marketingdagi asosiy yo'nalishlari

Sun'iy intellekt marketing strategiyasini ishlab chiqishda korxonaning ichki va tashqi omillarini chuqur tahlil qilish talab etiladi. Dastlabki bosqichda kompaniyaning texnologik infratuzilmasi, ma'lumotlar bazasi sifati, xodimlarning raqamli ko'nikmalari va innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik darajasi baholanadi. Keyingi bosqichda esa iste'molchilar xulq-atvori, bozor tendensiyalari va raqobatchilar faoliyati sun'iy intellekt yordamida modellashtiriladi [4].


Sun'iy intellekt asosida marketingni rivojlantirishning muhim strategik yo'nalishlaridan biri – ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish (Data-Driven Marketing) hisoblanadi. SI algoritmlari katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash orqali iste'molchilarning xarid ehtimolini aniqlaydi va reklama byudjetini samarali taqsimlash imkonini beradi. Masalan, Google platformasining aqlli reklama tizimlari foydalanuvchilarning qidiruv tarixiga asoslanib moslashtirilgan reklama takliflarini shakllantiradi. Shuningdek, Meta Platforms tomonidan taklif etilayotgan targetlash mexanizmlari sun'iy intellekt algoritmlariga asoslanib, auditoriyani yosh, hudud, qiziqish va onlayn xatti-harakatlariga ko'ra aniqlaydi. Bu esa reklama samaradorligini oshirib, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi [7].

Sun'iy intellekt yordamida marketingni rivojlantirishning yana bir muhim jihati – mijoz tajribasini (Customer Experience) yaxshilashdir. Chatbot va virtual assistentlar tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari asosida mijozlarning savollariga tezkor javob beradi. Masalan, Amazon o'z platformasida tavsiyaviy tizimlar orqali har bir foydalanuvchiga individual mahsulot takliflarini taqdim etadi. Bu esa mijoz sodiqligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt marketing kampaniyalarining natijadorligini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beradi. Algoritmlar reklama ko'rsatkichlarini (CTR, konversiya darajasi, ROI) tahlil qilib, kampaniya parametrlarini avtomatik ravishda optimallashtiradi. Natijada marketing faoliyati yanada aniq va samarali bo'ladi.



Natijalar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan marketing strategiyalari an'anaviy yondashuvlarga nisbatan yuqori samaradorlikni ta'minlaydi [6]. Biroq, mazkur jarayon ma'lumotlar xavfsizligi, shaxsiy hayotni himoya qilish hamda texnologik infratuzilma bilan bog'liq muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois, sun'iy intellektdan foydalanishda huquqiy-me'yoriy asoslar va axborot xavfsizligi talablariga rioya etish muhim ahamiyatga ega.

Korxonada marketingni rivojlantirishda sun'iy intellekt platformalaridan foydalanish mexanizmi quyidagicha amalga oshiriladi. Zamonaviy korxonalarda marketing jarayonlarini raqamlashtirish va optimallashtirish uchun turli sun'iy intellekt platformalaridan foydalanish zarur. Ushbu platformalar ma'lumotlarni tahlil qilish, auditoriyani segmentatsiya qilish, reklama kampaniyalarini boshqarish hamda mijozlar bilan interaktiv aloqani yo'lga qo'yishda muhim vosita hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm Korxonada SI platformalaridan foydalanish mexanizmi

Globalashuv sharoitida korxonalar uchun raqamli marketingni sun'iy intellekt asosida transformatsiya qilish strategik zaruratga aylanmoqda. SI platformalari reklama samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish, mijozlar bilan individual aloqani yo'lga qo'yish hamda raqobat ustunligini ta'minlash imkonini beradi. Shu sababli, marketing tizimini modernizatsiya qilishda zamonaviy AI platformalarini tanlash, ularni bosqichma-bosqich joriy etish va professional premium xizmatlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sun'iy intellekt marketingni rivojlantirishning innovatsion vositasi sifatida korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish, mijozlar bilan interaktiv aloqani kuchaytirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. SI texnologiyalari yordamida kompaniyalar iste'molchilar ehtiyojini chuqur tahlil qilish, shaxsiylashtirilgan takliflar yaratish va marketing resurslarini optimal boshqarish imkoniga ega bo'ladi. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida marketing jarayonlarini sun'iy intellekt asosida transformatsiya qilish korxonalarining barqaror rivojlanishining muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Davenport, T. H., & Ronanki, R. (2018). Artificial Intelligence for the Real World. Harvard Business Review, 96(1), 108–116.
2. Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. (2019). Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice (7th ed.). Pearson Education Limited.



3. Wedel, M., & Kannan, P. K. (2016). Marketing analytics for data-rich environments. *Journal of Marketing*, 80(6), 97–121.
4. Kumar, V., Dixit, A., Javalgi, R. G., & Dass, M. (2016). Research framework, strategies, and applications of intelligent agent technologies (IATs) in marketing. *Journal of the Academy of Marketing Science*, 44(1), 24–45.
5. Huang, M.-H., & Rust, R. T. (2018). Artificial Intelligence in Service. *Journal of Service Research*, 21(2), 155–172.
6. Shankar, V., et al. (2021). Digital marketing communication in global marketplaces: A review of extant research, future directions, and potential approaches. *International Journal of Research in Marketing*, 38(2), 246–270.
7. Bughin, J., Seong, J., Manyika, J., Chui, M., & Joshi, R. (2018). Notes from the AI frontier: Applications and value of deep learning. McKinsey Global Institute.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-358-son Qarori. <https://www.lex.uz/docs/-7158604>
9. Olimjonovich, M. T. (2024). Digital transformation in Uzbekistan and new opportunities for small business. *Journal of Law and Economics*, 7(12), 89–96.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
